# Tarix fanidan online test topshirish uchun TEST SAVOLLARI

| |
|---|
| 1. **Yevropa Kengashining oliy organlarini aniqlang.** |
| Parlament Assambleyasi va Strasburg Kengashi |
| Tashqi ishlar vazirlari Qo‘mitasi va Parlament Assambleyasi |
| Yevroparlament va Bosh vazirlar Kengashi |
| Tashqi ishlar vazirlari Qo‘mitasi va Gaaga Sudi |
| 2. Lashkarboshi Van Gon asos solgan Koryo sulolasi qaysi yillarda hukmronlik qilgan? |
| 918-1397-yillar |
| 917-1392-yillar |
| 918-1392-yillar |
| 908-1397-yillar |
| 3. Ulug‘bek rasadxonasining ulkan sekstanti o`rnatilishida qaysi olim boshchilik qilgan? |
| G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy |
| Shamsiddin Muhammad Havofiy |
| Alouddin Ali Qushchi |
| Qozizoda Rumiy |
| 4. Quyidagi qaysi tarixchi(lar) tomonidan Somoniylar davlatida boshqaruv, asosan, 10 ta devon orqali idora etilib, ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanganligi haqida ma'lumotlar yozib qoldirilgan? |
| Ibn Havqal va Ishtahriy |
| Narshaxiy |
| Sharafiddin Ali Yazdiy |
| Juzjoniy |

| |
|---|
| 5. Amir Temur bilan diplomatik aloqalar o`rnatib, yozishmalar olib borgan Angliya qirolini aniqlang. |
| ◌ Genrix IV |
| ◌ Ioann VII |
| ◌ Genrix III |
| ◌ Karl VI |
| 6. Amir Temur Tarozdan to Xo`tangacha bo‘lgan hududlarni kimga suyurg‘ol qilib bergan? |
| ◌ Mirzo Ulug‘bekka |
| ◌ Ibrohim Sultonga |
| ◌ Mirzo Umar ibn Mironshohga |
| ◌ Pirmuhammad Jahongirga |
| 7. 1988-yilda Pokiston Bosh vaziri etib saylangan Benazir Bxutto qaysi partiya rahbari edi? |
| ◌ Xalq partiyasi |
| ◌ Musulmon ligasi |
| ◌ Sotsial demokratik partiya |
| ◌ Avomi liga |
| 8. Ikkinchi jahon urushi yillarida O`zbekistonda tuzilgan, milliy qo`shilma askarlari va zobitlariga yaxshi harbiy ta’lim berishda katta rol o`ynagan zaxiradagi diviziyani toping. |
| ◌ Panfilov diviziyasi |
| ◌ 353-o`qchi diviziya |
| ◌ 24-o`qchi diviziya |
| ◌ 258-o`qchi diviziya |
| 9. XX asr ikkinchi yarimida quyidagi qaysi davlat o`z xalqiga nisbatan maxfiy politsiya, ya'ni SAVAKni tashkil etib, yerto`lalarida 380 ming nafar aholisini yo`q qiladi? |

| |
|---|
| ○ Turkiya |
| ○ Afg`oniston |
| ○ Eron |
| ○ Iroq |
| 10. Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizm kirdikorlari fosh etilib, g`alaba qozonishga bo`lgan ishonch aks ettirilgan asarlarni mualliflari bilan to`g`ri juftlab ko`rsating. 1) “Maktub”; 2) “Jangchi Tursun”; 3) “Ona kuzatmoqda”; 4) “Nayzamiz”; a) Sulton Jo`ra; b) Uyg`un; c) Maqsud Shayxzoda; d) Hamid Olimjon |
| ○ 1-b, 2-d, 3-a, 4-c |
| ○ 1-b, 2-d, 3-c, 4-a |
| ○ 1-d, 2-c, 3-b, 4-a |
| ○ 1-a, 2-b, 3-c, 4-d |
| 11. Qutayba ibn Muslim, Xuroson noibi bo‘lgach, harbiy yurishlarini qachon va qayerni zabt etishdan boshlaydi? |
| ○ 705-yilda Balx viloyati atroflarini |
| ○ 704-yilda Balx viloyati atroflarini |
| ○ 707-yilda Buxoro viloyati atroflarini |
| ○ 705-yilda Marv viloyati atroflarini |
| 12. Ikkinchi jahon urushi yillarida samolyot va tanklarga kerakli mahsulotlar yetkazib beradigan «Kommunar» va «Stroymashina» zavodlari respublikamizning qaysi shahrida joylashgan edi? |
| ○ Qo`qon |
| ○ Toshkent |
| ○ Andijon |
| ○ Samarqand |
| 13. 1944-yil yanvar oyida gitlerchilar harbiy asirlardan tuzilgan "Turkiston legioni" otryadini qaysi hududdagi partizanlarga qarshi jangga soladilar? |

| |
|---|
| ○ Bolgariyadagi |
| ○ Belorussiyadagi |
| ○ Chernogoriyadagi |
| ○ Polshadagi |
| 14. Qo‘qon xonligida me’morchilik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan? 1) Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Abulg‘oziyxo‘ja kabi me’morlar o‘zlari bunyod etgan inshootlari bilan mashhur bo‘lgan va ular xattotlik san’ati namunalari bilan bezatilgan. 2) Norbo‘tabiy madrasasi XVIII asrning o‘rtalarida bunyod etilgan. 3) Daxmayi Shohon maqbarasi XIX asrning I choragida qurilgan. 4) Umarxon Turkiston va uning atroflarini Orolbo‘yidan Yettisuvgacha egallab, Avliyoota, Pishpak, Oqmachit qal’alarini bunyod etdi. 5) Daxmayi Shohonda xonning otasiga atab qurilgan Modarixon maqbarasi ham joylashgan. |
| ○ 1, 2, 4 |
| ○ 3, 4 |
| ○ 2, 5 |
| ○ 1, 3, 5 |
| 15. Keyinchalik buyuk sarkarda bo`lib yetishgan Amir Temur dastlabki harbiy faoliyatini ... |
| ○ Tug‘luq Temurga xizmat qilishdan boshlagan |
| ○ viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan |
| ○ Amir Husayin qo`shinida xizmat qilishdan boshlagan |
| ○ Kesh dorug`aligidan boshlagan |
| 16. Bir yilda sodir bo`lgan voqealar ko`rsatilgan javobni aniqlang. 1. Rus knyazi Yaroslav vafot etdi. 2. Angliyada Richard II hukmronligi tugadi. 3. Amir Temur Hindistonga hujum boshladi. 4. Xristian cherkovi katolik va pravoslav cherkovlariga bo`lindi. 5. Birinchi salib yurishlari boshlandi. 6. Mansikert jangi bo`lib o`tdi. |
| ○ 1, 4 |
| ○ 2, 4 |

| |
|---|
| ○ 2, 3 |
| ○ 5, 6 |
| 17. 1947-yilda O`zbekistonning qaysi shaharlarida ochilgan ikki yillik kurslar kolxoz raislari va brigadirlar tayyorlab berib turgan? |
| ○ Samarqand va Farg`ona |
| ○ Toshkent va Andijon |
| ○ Toshkent va Samarqand |
| ○ Samarqand va Buxoro |
| 18. Amir Temurga ikki kunlik qamaldan so`ng taslim bo`lgan shaharni aniqlang. |
| ○ Badaxshon |
| ○ Balx |
| ○ Hirot |
| ○ Saroy Berka |
| 19. Qadimgi Midiya kimning hukmronligi davrida qudratli davlatga aylandi? |
| ○ Salmanasar |
| ○ Sargon I |
| ○ Kiaksar |
| ○ Menua |
| 20. Xitoyda Min sulolasi boshqaruvi davrida qaysi davlat bilan munosabatlari buzilgan? (XV asr boshi) |
| ○ Amir Temur saltanti bilan |
| ○ Yaponiyadagi Asikaga sulolasi bilan |
| ○ Oltin O‘rda xonligi bilan |
| ○ Dehli sultonligi bilan |